PSIXIK RIVOJLANISHNING ASOSIY QONUNIYATLARI

G'afforova Nazira Fayzulla qizi
TAFU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi
e.mail.naziragafforova@gmail.com
Ismadiyorova Dilnoza Nurmuhammad qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi
e.mail.ismadiyorovadilnoza@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda inson rivojlanishi nafaqat uning fiziologiyasi balki psixologiyasi bilan ham bog'liqligi tushuntiriladi. Inson komil bo'lishi , jamiyatda o'z o'rnini topishi, baxtli va farovon yashashi uchun uning psixikasi katta ahamiyatga ega . Har qanday hayotimizga xavf soluvchi yot g'oyalar eng avvalo bizning psixikamizda muammolar borligi uchun kelib chiqadi. Quyida bu kabi holatlarning kelib chiqishi psixik qonuniyatlar bilan qanday qilib bog'liq ekanligini ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Geteroxronlik , rivojlanishning davriyligi , biologik omillar, ijtimoiy omillar ,metomorfoza , uzluksizlik qonuniyati.

Аннотация: В данной работе объясняется, что развитие человека связано не только с физиологией, но и с психологией. Для того чтобы человек был совершенным, нашел свое место в обществе и жил счастливо и комфортно, его психика имеет огромное значение. Любые чуждые нам идеи, угрожающие нашей жизни, возникают прежде всего из-за проблем в нашей психике. Ниже мы рассмотрим, как происхождение таких ситуаций связано с психологическими законами.

Ключевые слова: гетерохронизм, периодичность развития, биологические факторы, социальные факторы, метаморфоза, закон непрерывности .

Abstract: This thesis explains that human development is not only related to physiology, but also to psychology. For a person to be perfect, find his place in society,

and live happily and comfortably, his psyche is of great importance. Any alien ideas that threaten our lives arise primarily because of problems in our psyche. Below we will consider how the origin of such situations is related to psychological laws.

Keywords: Heterochronism, periodicity of development, biological factors, social factors, metamorphosis, law of continuity.

Kirish:

Inson bor ekan uning psixologiyasi turli omillar tasirida kamolotga yetadi yoki tanazzulga uchraydi. Bir qancha tadqiqotlar natijasida psixik rivojlanish qonuniyatlari ishlab chiqilgan .

Asosiy qism :

Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari inson psixikasining tug‘ilishdan boshlab butun hayoti davomida qanday shakllanishi va o‘zgarishini tushuntirib beradigan muhim ilmiy tamoyillardan biridir . Bu qonuniyatlar psixologiya fanida shaxsning rivojlanishini chuqur anglashga yordam beradi.

Psixik rivojlanishni inson ruhiyatining oddiydan murakkabga , miqdordan sifatga o’zgarib borish jarayoni desak ham bo’ladi.L.S.Vigotskiy va boshqa psixologlar tomonidan asoslangan psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardir:

— Rivojlanishning notekisligi (Geteroxronlik):Psixikaning turli funksiyalari(diqqat , xotira ,nutq, tafakkur) bir vaqtda bir xil tezlikda rivojlanmaydi.Masalan , go’daklikda idrok va harakat tez rivojlansa , maktab yoshida tafakkur birinchi o’ringa chiqadi.

— Rivojlanishning davriyligi deganda har bir yosh bosqichining o’ziga xos ravishda rivojlanish bosqichlari tushuniladi . Rivojlanish goh tezlashadi, gohida sekinlashadi yoki turg’un holatga o’tadi . Maslan , o’spirinlik yoshigacha insonning fiziologik rivojlanishi jadal va o’zgaruvchan kechadi.Keyin o’rta yoshlarga kelib bu

jarayon to’xtaydi. Ayrim kasalliklar tufayli tana a’zolarining rivojlanishi esa bundan mustasno.

— Metomorfoza ya’ni sifat o’zgarishidir.Bunda rivojlanish jarayonida bilimlar to’planmaydi , balki, shaxsning butun psixik tuzilishi jihatidan yangi bosqichga ko’tariladi. Misol uchun maktabgacha yoshdagi bolaning asosiy faoliyati o’yin bo’lgan bo’sa , maktab yoshidagi bolaning asosiy faoliyati o’qish faoliyatir.

Bolaning fikrlashi va dunyoqarashini o’yindan bilim olishga qaratish o’zgartirib yubaradi va u hayotidagi yangi bosqichni boshlaydi.

— Rivojlanishning bosqichma -bosqich rivojlanish turi ham mavjud . Bu yerda psixik rivojlanish ma’lum yosh davrlariga bo’linadi va har bir davr o’ziga xos xususiyatga ega.Masalan , go’daklik , maktabgacha yosh , kichik maktab yoshi , maktab yoshi va hokazo.

Shaxsning psixik rivojlanishi bir necha omillarga ham bog’liq.

Biologik omil . Bu irsiyat bilan bog’liq omil bo’lib , psixikamizdagi ayrim jarayonlar bizga avlodlarimizdan meros bo’lib qolgan bo’lishi mumkin .Yoki ayrim xarakter xususiyatlarimiz o’xshashi mumkin .Biologik omilda faqat fiziologik jihatdan o’xshashlikkina emas psixologik jihatdan o’xshashlik ham bo’ladi. Ijtimoiy omil esa atrofimizdagi insonlarning bizga ta’siri natijasida bizning psixikamizdagi o’zgarishlarni tushunishimiz mumkin. Insonning o’zgarishiga tashqi muhit ham katta ta’sir o’tkazadi. Ayrim holatlarda yomon xulqli , nutqida qo’pol so’zlardan foydalanadigan , fikrlashi tor doirali insonlarni ko’rganimizda, bu holat naqadar xunuk va ayanchli hol ekanligiga guvoh bo’lamiz. Natijada biz bilan bunday bo’lmaslik uchun har tomonlama rivojlanishga , o’qib -o’rganishga , yaxshilar bilan do’st bo’lishga harakat qilamiz. Bu ham ijtimoiy muhitning insonlarga ta’siridir. Yana bir rivojlanish qonuniyatiga uzluksizlikni kiritishimiz mumkin. Ushbu qonuniyatda psixikamiz perinatal davrdan to uzoq umr ko’ruvchilar davrigacha uzluksiz turli davrlarga almashinib rivojlanib borishi hisoblanadi.

Xulosa:

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida shuni aytishimiz mumkinki , inson biosotsial mavjudot.Uning qanday rivojlanishi avvalo ekologiyaning qay darajada yaxshiligiga , irsiyatida muammosi yo’qligiga va eng asosiysi o’zining xohish -irodasiga bog’liqdir. Agar nimagadir chin dildan erishishni istasak bor imkoniyatlarimizdan foydalanib , ongli mavjudod sifatida har qanday qiyinchiliklarni yengib o’ta olamiz. Hoh u jismoniy bo’lsin , hoh psixologik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Lev Vygotsky. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

2.Jean Piaget. “The Psychology of the Child”. New York: Basic Books, 1969.

3.Aleksei Leontiev. “Activity, Consciousness, and Personality”. Moscow: Progress Publishers , 1978

4. Davletshin M.G., Do'stmuxamedova S.A. Mavlonov M.M. To'ychiyeva S.M. Yosh va pedagogik psixologiya. -T.: TDPU, 2004.

5. Xaydarov F.I. Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. -T.: TDPU, 2010. 400

6. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. -T.: Yangi asr avlodi.

7. G'oziyev E.G. Psixologiya fani XXI asrda. -T.: Universitet.

8. Karimova V.M. Psixologiya. -T.: Sharq, 2000. -256 b.

Progress Publishers, 1978.